


Biologiya

- Fanga "aorta" tushunchasini kiritgan olimni aniqlang.
A) *Leonardo da Vinchi* B) *Galen*
C) *Gippokrat* D) *Aristotel*
- Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javobni aniqlang.
Ribosoma
A) *ATF sintezlaydi*
B) *bir membranali organoid*
C) *hujayra turgorligini ta'minlaydi*
D) *hayotning barcha hujayraviy shakllarida uchraydi*
- Quyidagi organizmlarga xos tuzilmalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
a) achitqi zamburug'i; b) ossillatoriya.
1) plastida; 2) mitselliy; 3) plazmatik membrana; 4) halqasimon DNK; 5) ribosoma; 6) mitoxondriya
A) a-3, 6; b-4, 5 B) a-3, 5; b-1, 5
C) a-2, 4; b-3, 6 D) a-1, 6; b-2, 4
- Energiya almashinuvining tayyorgarlik bosqichida sodir bo'ladigan jarayonni belgilang.
A) *1 molekula glukozaning parchalanishidan 2 molekula sut kislotasi hosil bo'lishi*
B) *kraxmalning glukozagacha parchalanishi*
C) *organik birikmalarning sintezlanishi*
D) *mitoxondriyalarda kislorodsiz parchalanish yuz berishi*
- Zog'ora baliqning somatik hujayrasidagi autosomalar sonini belgilang.
A) 24 B) 102 C) 23 D) 104
- Quyidagi sxemada berilgan noma'lum X ni aniqlang.



- A) *vertitsill* B) *raffleziya* C) *batsidiya*
D) *manta*

- Shimpanze ovogenezining meyozi I anafaza bosqichida mutatsiya tufayli 3- va 14-gomologik xromosomalar tarqalmay bir qutbga o'tib, shu qutbdan tuxum hujayra rivojlangan. Hosil bo'lgan tuxum hujayra normal spermatozoid bilan urug'lansa, hosil bo'lgan zigotadagi xromosomalar holatini aniqlang.
A) 50 B) 46 C) 47 D) 52
- Shimpanzening spermatogenez jarayonidan so'ng hosil bo'lgan hujayra tarkibidagi xromosoma to'plamini aniqlang.
A) 24+X B) 23+X yoki 23+Y C) 22+X D) 46+XY
- AaBbCcDdEe* va *AaBbccDdEe* genotipli organizmlar hosil qiladigan gameta xillarining nisbatini aniqlang.
A) 4:1 B) 2:1 C) 1:1 D) 8:1
- Qanotlari kalta, kulrang tanali drozofilaning genotipini aniqlang.
A) *AABb* B) *AaBb* C) *aaBb* D) *aabb*
- Onasi daltonizm bilan kasallangan, otasi sog'lom oilada tug'ilgan "Daun sindrom"li o'g'il kariatipini aniqlang.
A) $44 + X^{DY}$ B) $44 + X^{dY}$ C) $45 + X^{DY}$
D) $45 + X^{dY}$
- Nuqtalar o'rniga mos javobni aniqlang.
Oq ayiq va yumronqoziq bir . . . ga mansub hayvon.
A) *tur* B) *turkum* C) *oila* D) *tip*
- Qo'ziqorin zamburug'i daryo qisqichbaqasi kabi . . .
A) *plazmidga ega* B) *geterotrof oziqlanadi*
C) *xloroplastga ega* D) *avtotrof oziqlanadi*
- Jag'-jag' uchun xos bo'lgan belgilarni aniqlang.
1) mevasi qo'zoq; 2) mevasi qo'zoqcha; 3) bir yillik o't; 4) ko'p yillik o't; 5) to'pguli soyabon; 6) to'pguli shingil; 7) changchisi 4 ta; 8) changchisi 6 ta
A) 2, 4, 6, 7 B) 2, 3, 6, 8 C) 1, 4, 5, 7
D) 1, 3, 5, 8
- Sporangiyga ega bo'lmagan o'simliklarni aniqlang.
1) suv qirqqulog'i; 2) sharq sauri; 3) dorivor qoqio't; 4) sershox qirqbo'g'im; 5) zuhrasoch qirqqulog'i; 6) suv yong'og'i
A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 6 C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 6

16. Quyidagi o'simliklarga xos ma'lumotlar to'g'ri juftlangan javobni belgilang.
 1) murakkab to'pgul hosil qiladi; 2) poyasi yog'ochlashgan; 3) ko'p yillik o'simlik; 4) bargi oddiy; 5) guli to'g'ri; 6) chatnaydigan mevaga ega;
 a) beshyaproqli partenosis; b) karam;
 c) shirinmiya
 A) a-4; b-6; c-5 B) a-4; b-2; c-5
 C) a-6; b-2; c-3 D) a-5; b-4; c-3

17. Siklopning qon aylanish sistemasi haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

- A) yuragi rivojlanmagan
 B) qon aylanish sistemasi ochiq
 C) qon aylanish sistemasi yopiq
 D) qoni kislorod tashishda ishtirok etmaydi

18. Jadvaldagi noma'lum X o'rniga mos keluvchi javobni aniqlang.

Sinf	Oila	Tur
Magnoliasimon	X	kanop
Lolasimon	piyozdoshlar	qum piyoz

- A) gulxayridoshlar B) ra'nodoshlar
 C) ituzumdoshlar D) loladoshlar

19. Odam skeletining beshinchi umurtqasiga xos xususiyatni aniqlang.

- A) kalta g'ovak suyak, yon tomonidan qovurg'alar birikmaydi
 B) kalta g'ovak suyak, yon tomonidan yassi suyak birikadi
 C) yon tomonidan bir juft chin qovurg'alar birikadi, uzun naysimon suyak
 D) uzun g'ovak suyak, yon tomonidan qovurg'alar birikmaydi

20. Sog'lom odamning qaysi qon tomirlaridagi qonda karbonat angidridning konsentratsiyasi kislorodnikiga nisbatan past bo'ladi?

- 1) bosh miyadan qon olib ketadigan;
 2) buyraklarga qon olib keladigan; 3) o'pka alveolaridan qon olib ketadigan; 4) oyoqning to'rt boshli muskulidan qon olib ketadigan;
 5) oshqozonga qon olib keladigan.

- A) 1, 4 B) 3, 5 C) 1, 3 D) 2, 4